

HARAKATLI O'YINLARNI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH

Nurmaxmatov Lutfulla¹

¹ *Boshlang'ich ta'lif metodikasi kafedrasi o'qituvchisi*

Shahina Usmonova Xudoynazar qizi¹

¹ *Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti 3-21-guruh talabasi*

MAQOLA MALUMOTI

MAQOLA TARIXI:

Received: 21.05.2025


Revised: 22.05.2025

Accepted: 23.05.2025

KALIT SO'ZLAR:

*harakatli
o'yinlar,tashkil
qilish,o'yin
turlari,jismoniy
rivojlanish,tashkil
qilish,ruhiy
salomatlik,o'yin
turlari,o'yin
qoidalarini,ta'lif
jarayoni,innovatsion
yondashuvlar.*

ANNOTATSIYA:



harakatli o'yinlar nafaqat bolalar uchun qiziqarli va ko'ngilochar faoliyat, balki ularning jismoniy rivojlanishi, ijtimoiy ko'nikmalarini oshirish va ruhiy salomatligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. O'yinlar uchun zarur bo'lgan materiallar, xavfsizlik choralarini ko'rish, o'yin qoidalarini tushuntirish va ishtirokchilarni rag'batlantirish kabi masalalar ham ko'rib chiqiladi. Shuningdek, harakatli o'yinlarning ta'lif jarayonidagi roli, ularning bolalarning jismoniy faolligini oshirishdagi ahamiyati va o'zaro munosabatlarni rivojlantirishdagi foydalari haqida ma'lumotlar beriladi.

KIRISH. Harakatli o'yinlarni tanlash va rejalshtirish dasturga muvofiq amalga oshiriladi. Bunga har bir yosh gruhning ish sharoiti hisobga olinadi, chunonchi bolalarni jismoniy va aqliy rivojlanishining umumiyligi darajasi harakat ko'nikmalarining rivojlanishi, har bir bola sog'lig'ining ahvoli, o'ziga xos xususiyatlar, yil fasli, kun tartibi, uyini o'tkazish o'rni, shuningdek bolalar qiziqishlarini o'ziga xos xususiyatlari. Harakatli o'yinlar dastur talablariga muvofiq asta-sekin murakkablashtirib boriladi, bolalar ongini o'sishi, ular to'plagan harakat tajribasini, mакtabga tayyorlash zaruriyatini hisobga olgan holda

o‘zgartirib turiladi. Katta guruhda bolalar uchun harakatli o‘yinlar o‘z mazmuni, qoidalari, rollarning miqdori, topshirishni jamoa musobaqasiga joriy etishga ko‘ra murakkablashtiriladi. Maktabga tayyorlov guruhi bolalari birmuncha murakkab harakatli o‘yinlar, shuningdek jamoa musobaqlaridan iborat jamoa o‘yinlarni, o‘yin estafetasi, sport o‘yinlarini o‘ynaydilar. Bularning hammasi chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilikni rivojlanishi, harakat ko‘nikmalining takomillashuviga, axloqiy-irodaviy sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Harakatli o‘yinlarni o‘tkazishda erishiladigan sog‘lomlashtirish samarasi bolalarning o‘yin faoliyati jarayonida yuzaga keladigan va bola psixikasiga yaxshi ta’sir etadigan ijobiy emotsiyalar bilan uzviy bog‘liqdir. Emotsional ko‘tarinkilik bolalarda barcha uchun umumiy bo‘lgan maqsadga erishishga intilish uyg‘otada va u vazifalarni aniq tushunishda, harakatlarning o‘zaro mosligida, fazoda va o‘yin sharoitlarida aniq mo‘ljal olishda, topshiriqlarni tezlashtirilgan sur’atda bajarilishida ifodalanadi. Bolalarning maqsadga erishishga nisbatan kuchli ishtiyoqi va zavqli intilishi asnosida turli to‘sqliarni yengib o‘tishga yordam beruvchi irodaning roli oshadi. Harakatli o‘yinlar bolalar tomonidan avval egallangan harakat ko‘nikmalarini takomillashtirish va jismoniy sifatlarni tarbiyalash metodi bo‘lib xizmat qiladi. O‘yin jarayonida bola o‘z e’tiborini harakatni bajarish usuliga emas, balki maqsadga erishishga qaratadi. U o‘yin shartlariga muvofiq harakat qiladi, bunda chaqqonlik ko‘rsatadi va shu asnoda harakatlarni takomillashtiradi. Shuning uchun, masalan, «Bo‘ri jarlikda» o‘yini bolalar yugurib kelib uzunka sakrashni bilib olganlaridan keyin beriladi. O‘yinni yakunlash. Harakatli o‘yin jismoniy yuklamani kamaytiradigan xolga keltiradigan umumiy yurish bilan tugallanadi. Yurishni ahamiyatiga ko‘ra bir xil bo‘lgan kam harakatli o‘yin bilan almashtirish ham mumkin. Harakatli o‘yinlar muhim ahamiyatga ega bo‘lgan kompleks ta’lim-tarbiya Jarayonidir. Bu Jarayonning asosini tashkil etuvchi bolalarning harakat faoliyati Jismoniy rivojlanishga, harakat ko‘nikmalari ko‘nikmalari va jismoniy sifatlarning shakllanishiga, organizmning funksional faoliyatini oshirgan va emotsional quvnoqlik tuyg‘ularini kuchaytirgan holda salomatlikni mustahkamlashga ijobiy ta’sir etadi. Harakatli o‘yinlar Jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari va metodlaridan biri sifatida yuqorida sanab o‘tilgan vazifalarni samarali hal etishga yordam beradi.

Harakatli o‘yinlarni o‘tkazishda erishiladigan sog‘lomlashtirish samarasi bolalarning o‘yin faoliyati jarayonida yuzaga keladigan va bola psixikasiga yaxshi ta’sir etadigan ijobiy emotsiyalar bilan uzviy bog‘liqdir. Emotsional ko‘tarinkilik bolalarda barcha uchun umumiy bo‘lgan maqsadga erishishga intilish uyg‘otada va u vazifalarni aniq tushunishda, harakatlarning o‘zaro mosligida, fazoda va o‘yin sharoitlarida aniq mo‘ljal olishda,

topshiriqlarni tezlashtirilgan sur'atda bajarilishida ifodalanadi. Bolalarning maqsadga erishishga nisbatan kuchli ishtiyoqi va zavqli intilishi asnosida turli to'siqlarni yengib o'tishga yordam beruvchi irodaning roli oshadi. Harakatli o'yinlar bolalar tomonidan avval egallangan harakat ko'nikmalarini takomillashtirish va jismoniy sifatlarni tarbiyalash metodi bo'lib xizmat qiladi. O'yin Jarayonida bola o'z e'tiborini harakatni bajarish usuliga emas, balki maqsadga erishishga qaratadi. atadi. U U o'yin o'yin shartlariga muvofiq harakat qiladi, bunda chaqqonlik ko'rsatadi va shu asnoda harakatlarni takomillashtiradi. Shuning uchun, masalan, «Bo'ri Jarlikda» o'yini bolalar yugurib kelib uzunlikka sakrashni bilib olganlaridan keyin beriladi. Harakatli o'yinlar bolalarda oddiy vaqt mo'ljalini shakllantiradi. Ular quyidagilarda ifodalaniadi: o'yin harakatlarining izchilligini tushunib olishda avval, so'ng, bundan keyin, bundan oldin, barini bir vaqtida kabi o'yin topshiriqlarini signalga ko'ra, bolalar uchun belgilangan muddat doirasida tez bajarishida ko'rindi. Bu o'yinlarga bolalar fazoda mo'ljal olishni, harakatlar izchilligi va ularga vaqt davomida amal qilishni mashq qiladi.

Harakatli o'yinlar turli xil bo'lishi mumkin: sport o'yinlari, qiziqarli musobaqlar, jamoaviy o'yinlar va boshqalar. O'yinlarni tanlashda ishtirokchilarining yoshini, qobiliyatini va qiziqishlarini hisobga olish muhimdir. Masalan, bolalar uchun oddiy qoidalar va qiziqarli o'yinlar tanlanishi kerak. O'yin o'tkaziladigan joy xavfsiz va qulay bo'lishi kerak. O'yin maydoni toza va tartibli bo'lishi kerak. O'yin davomida jarohat olish ehtimolini kamaytirish uchun xavfsizlik choralarini ko'ring. Masalan, o'tkir narsalarni olib tashlang va zarur hollarda himoya jihozlarini taqdim eting. O'yin qoidalari aniq va tushunarli bo'lishi zarur. O'yin boshlanishidan oldin barcha ishtirokchilarga qoidalarni tushuntiring. Bu o'yinning tartibli o'tishini ta'minlaydi va ishtirokchilar o'rtasidagi oldini oladi. Ishtirokchilarни rag'batlantirish o'yinning qiziqarli va faol o'tishini ta'minlaydi.

- O'zaro muloqot: ishtirokchilar o'rtasida ijobjiy muloqotni rag'batlantiring.
- Mukofotlar: g'oliblarni yoki faol ishtirokchilarni mukofotlash orqali motivatsiyani oshiring.

O'yin davomida jarayonni kuzatib boring. Agar biror narsa noto'g'ri ketsa yoki o'yin juda qiyin yoki oson bo'lsa, mos ravishda o'zgarishlar kriting. Ishtirokchilarining fikr-mulohazalarini tinglash ham muhimdir. O'yin tugagach, ishtirokchilar bilan birgalikda o'yinning natijalarini tahlil qiling. Ishtirokchilarga o'z fikrlarini bildirish imkoniyatini bering. O'yindan qanday foyda olish mumkinligini muhokama qiling va kelajakda qanday yaxshilanishlar kiritilishi mumkinligini aniqlang. Harakatli o'yinlarni tashkil qilish va o'tkazish jarayoni jismoniy faoliyatni rag'batlantirish, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish

va ruhiy salomatlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Yuqoridagi maslahatlar yordamida siz harakatli o'yinlarni muvaffaqiyatli o'tkazishingiz mumkin. Har bir o'yin - bu yangi tajriba va qiziqarli muloqot uchun ajoyib imkoniyatdir!

Foydalanilgan adabiyot va havolalar

1. Maxkamjonov K.M Xo'jaev P. "1-2-3-4 sinflarda jismoniy tarbiya" o'quv qo'llanma 2004-2011y.
2. Abdullayev A., Xonkeldiyev SH. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi Toshkent., O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti, 2005 yil.
3. Maxkamjonov K.M. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. T.: "Iqtisod-moliya", 2008.
4. Nuriddinova M.M. «Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya yo'riqchilari uchun me'yoriy hujjatlar me'yoriy hujjatlar majmui». -T.: "Muxarrir", 2013.
5. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/maktabgacha-va-boshlang-ich-talim/harakatli-o-yinlarni-tashkil-etish-va-o-tkazish-metodikasi>